

Ergasheva Nilufar Akramjon qizi ,
O‘zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti
talabasi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori.
URDU professori, f.f.d.D.G‘oyipov taqrizi asosida

Ergasheva Nilufar,

Student of the Faculty of Journalism and Uzbek Philology of the National
University of Uzbekistan, laureate of the State Prize named after Zulfiya.

Based on the review of Professor of URDU, Ph.D., Ph.D. Goyipov

МЕТОДИКА ИНТЕРПРЕТАЦИИ СТИХОТВОРЕНИЙ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация: В статье анализируются эпические поэмы Алишера Навои и методология анализа его произведений. Выясняется, какими религиозными и светскими источниками пользовался Алишер Навои, и на основе каких произведений он написал газели-аллюзии в частях «Хамда».

Ключевые слова: Хамд, муноджат, на'т, Фарход и Ширин, Алламал инсун, Хамса, Гарайиб ус-сигъар.

METHODOLOGY FOR INTERPRETING ALISHER NAVOI'S POEMS

Abstract: This article analyzes the epic poems of Alisher Navoi and the methodology of analyzing his works. It identifies which religious and secular sources Alisher Navoi used, and based on which books he wrote allusive ghazals in the parts of Hamd.

Keywords: Hamd, munajat, na't, Farhod and Shirin, Allamal insoon, Khamsa, Gharoyib us-sig'ar.

Alisher Navoiy g‘azallarini sharhlash metodikasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning dostonlarini sharhi va asarlari trahlili metodikasi Va Alisher Navoiy qaysi diniy, dunyoviy manbalardan foydalangani, aynan qaysi kitoblarga tayanib hamd qismlarida ishoraviy g‘azallar yozgani aniqlanadi.

Kalit soʻzlar: Hamd, munojot, naʼt, Farhod va Shirin, Allamal inson, Xamsa, Gʻaroyib us-sigʻar

1.Kirish (Introduction). Bugungi jadal rivojlanib borayotgan zamonda har kimning oʻz rivojlanish yoʻli, usuli bor. Kimdir treninglarda ishtirok etadi, kimdir psixologik kurslar sotib oladi, kimdir komillikka erishish yoʻlini umuman boshqa sohalardan qidiradi. Muhimi, hozirgi globallashuv zamonida insonning maʼnaviy kamoloti masalasi, maʼnan komillikka erishish muhim ahamiyat kasb etishini barcha payqab boʻldi. Ushbu konsepsiya Alisher Navoiy zamonidayoq dolzarb ahamiyat kasb etgan, komil inson qanday boʻlishi kerak, umuminsoniy qadriyatlar va tushunchalar nimalarda koʻrinadi kabi savollarga shoir ham oʻziga xos, samarali javoblar bergan. Bu qarashlarni maktab oʻquvchilariga anglatish, adabiyot darslari shunchaki zerikarli sheʼrxonlik emas, haqiqiy maʼnaviy tarbiyaning manbayi ekanligini bildirish, Navoiy ijodining oʻquvchi dunyoqarashi, tasavvur olami, umuminsoniy sifatleri va maʼnaviy kamolotini yuksaltirishdagi oʻrnini koʻrsatish bugungi adabiyot muallimlarining asosiy vazifalaridan. Oʻquvchilar orasida Navoiyni tushunmaslik, shoir qoʻllagan soʻzlar murakkabligi bahonasida oʻqishga, uqishga intilmaslik holatlari kuzatiladi. Bu oʻqituvchilarga ikki karra masʼuliyat yuklaydi: shoir ijodini chuqur anglash bilan birga oʻquvchilarga ham anglata olish.

2.Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Maʼlumki, umumiy oʻrta taʼlim tizimining barcha bosqichlarida Alisher Navoiyning hayoti va ijodi oʻrganiladi. Jumladan,

5-sinfda “Hayrat ul-abror”dan hikoyat;

6-sinfda ruboiylar, hikmatlari;

7-sinfda qitʼa, fard kabi sheʼrlari;

8-sinfda ruboiy, tuyuq kabi sheʼrlari;

9-sinfda “Farhod va Shirin”dan parchalar;

10-sinfda “Saddi Iskandariy” dostonidan parchalar va bir gʻazali;

11-sinfda “Saddi Iskandariy”dan hikmatlar oʻrganiladi.

3.Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). 5–11-sinf adabiyot darsliklarida Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqidagi sahifa-sahifa maʼlumotlardan koʻra, shoir haqida hujjatli filmlar tayyorlanib darsliklarda QR kodlar orqali havola qilinishi dars jarayonida oʻquvchini zeriktirmaydi.

4.Tahlil va natijalar (Analysis and results).Filmda, avvalo, shoirning shaxs sifatida qanday inson boʻlganligi haqqoniy aks etishi kerak. Shunchaki soxta

nigohlar, ma'nosiz qarashlar bilan bugungi kun o'quvchisiga ta'sir qilish oson emas. Ko'zlari ekranga termulib qolgan, Amerika, Koreya multfilmlarini muntazam ko'rib ulg'ayayotgan bolalarni jonsiz tasvirlar qiziqitirmaydi. Buning uchun iste'dodli aktyorlar jamoasi bilan birga navoiyshunos olimlar ishlashi kerak. Navoiy yashagan davr Temuriylar saltanati yemirilishi, toj-u taxt uchun kurashlar shoir hayoti bilan bog'liq yoritilishi zarur. Chunki shoir asarlaridagi aktual masalalar Temuriylar davlati bilan bog'liq. Maktab o'quvchilari uchun mumtoz asarlar lug'ati yaratilishi zarur vazifalardan. Bugungi kungacha Berdaq Yusufning "Mumtoz asarlar lug'ati", "Navoiy asarlari lug'ati", "Bobur asarlarining qisqacha izohli lug'ati" qo'llanmalari yaratilgan. Lekin maktab kutubxonalariga yetib bormagan hisob. Shuning uchun lug'atlarning mobil versiyalarini ishlab chiqish ayni muddao. IT sohasi mutaxassisleri bilan hamkorlikda mumtoz asarlar lug'ati bilan bog'liq raqamli videoo'yinlar ixtiro qilinib, ta'limga tatbiq etilishi kerak.

Noan'anaviy darslarda o'quvchilar guruh-guruh bo'lib ishlaydi. Topshiriqlarni ham guruh bilan birgalikda bajaradi. Deylik, notanish so'zlar yuzasidan berilgan topshiriqni videoo'yinlar orqali bajaradi. Bunday o'yinlarni guruhlarda ham yakka o'zi ham o'ynashi mumkin. Agar topshiriqni qoniqarsiz bajarsa, yana qayta urinib ko'radi. Raqamli videoo'yinlar hayotni internetsiz tasavvur qila olmaydigan bugungi avlodni ta'limga qiziqitirishning eng qulay yechimidir. O'quvchi videoo'yinlarni o'ynash jarayonida interfaol muhit sharoitidan zavqlanadi va murakkab topshiriqlarni bajarib fanlarga oid bilimlarni yaxshi o'zlashtiradi. Bunday o'yinlarning ta'lim jarayonida tatbiq etishning ahamiyatli xususiyati ma'lum bir maqsadga yo'naltirilganligidadir. Masalan, o'quvchi notanish so'zlar bilan bog'liq videoo'yinlarni o'ynash davomida o'yin tarkibidagi shartlarni bajaradi. Bu shartlar o'quvchining maqsadiga aylanadi. O'yin bosqichma-bosqich oddiydan murakkabga tomon yo'naltirilgan bo'ladi.

O'quvchi keyingi bosqichga ko'tarilishi uchun biror shartni bajarishi kerak. Deylik, birinchi bosqichda notanish so'zlar bilan ularning bugungi muqobil variantini moslashtirish (o'yinning asosiy) shartini to'g'ri bajardi. Keyingi bosqichda xuddi shu shartning murakkabrog'ini o'ynaydi. Buning uchun o'yin ichidagi savollarga javob berishi kerak. Savollar mumtoz adabiyotni o'rgatishga yo'naltirilgan bo'ladi. G'azaldan ikki misra beriladi. Ushbu g'azalning radifini toping yoki qofiyasini aniqlang kabi bo'lishi mumkin. O'quvchi o'yinni davom ettirib yuqori darajaga ko'tarilish vazn, qofiya, radif haqidagi bilimlarni ham o'zlashtirishga harakat qiladi. O'yin davomida olgan bilimlarini amalda qo'llash

imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Amaliyot bilimni qay darajada o‘zlashtirilganligini ko‘rsatuvchi birlamchi unsurlardan biridir Ta’limning har bir daqiqasida barcha imkoniyatlarni qo‘llab bolaning fikrlash qobiliyatini shu yoshdagi ruhiy va intellektual imkoniyatlari darajasida rivojlantirib borish zarur. Mumtoz adabiyot namunalarini shunchaki, yuzaki o‘rganish ko‘zda tutilgan natijani bermasdan, o‘tmishdagi boy madaniyatni yosh avlod ongiga singdirishda ham bir qancha qiyinchiliklarga olib keladi.

Quyida Navoiy g‘azallarini o‘qitishga doir ba’zi tavsiyalar taqdim etamiz:

10-sinf “Adabiyot” darsligida “To muhabbat dashti bepoyonida ovoramen” g‘azali berilgan. Ushbu g‘azalni “Anglash” metodi yordamida tahlil qilish mumkin. “Anglash” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

Matnga ilk yondashuv.

Mazmunni idrok etish.

Shaklni idrok etish.

Matnga ilk yondashuv.

G‘azalni ifodali o‘qiymiz, tushunilishi qiyin so‘zlar izohi bilan tanishamiz.

To muhabbat dashti bepoyonida ovoramen,

Har baliyat kelsa, ishq oshubidin bechoramen.

El netib topqay menikim, men o‘zimni topmamom,

Bo‘ylakim, ishq-u junun sahrosida ovoramen.

Qaysi zaxming‘a qilursen chora chun men, ey rafiq,

Tiyr boroni baliyatdin sarosar yoramen.

Oh dudi ichra bir uchqun kibi ko‘rgan meni

Bildikim, hijron tuniga kavkabi sayyoramen.

Kecha o‘rtansam, sahar faryod qilsam, ne ajab,

Ishq aro oarvona-vu bulbulg‘a chun hamkoramen.

Ey xarobot ahli, gar siz mast o‘lub, men bo‘lmasam,
Ayb emas, nevchunki siz – mayxora, men xunxoramen.

Ey Navoiy, bordi deb ahbob, ta’jil etma ko‘p,
It kibi men erishib ul korvonni boramen.

G‘azalning nasriy bayoni, umumiy mazmuni anglashiladi. Mazmunni anglashda o‘qituvchining roli katta, lekin bu jarayonni o‘qituvchi tamoman o‘z qo‘liga olishi noto‘g‘ri. O‘quvchilarning o‘zlarini fikrlashga, fikrlarini bayon etishga undash kerak. O‘qituvchi faqat tushunilishi, anglanishi qiyin bo‘lgan so‘zlar, ishora qilingan voqea-hodisalarni bildirishi maqsadga muvofiq. Masalan: maqta’dagi “It kibi men erishib ul korvonni boramen” misrasida aynan qaysi voqeaga ishora qilinayotganini o‘qituvchi aytishi mumkin: uch solih yigit zolim hukmdor Daqqiyunus zamonida zulmdan qochib tog‘ sari bosh olib ketadilar. Ularga Qitmir degan bir it ham ergashadi va hammalari g‘orga yashirinadilar. Alloh ularni uyquga cho‘mdiradi, 300 yillik uyqudan so‘ng ular uyg‘onadilar. Navoiy ana shu uch solih yigitga ergashgan it kabi zulmdan qochib, haqiqat sari boraman, fikrini ilgari surgan, deyishi mumkin.

G‘azalning umumiy mazmuni: Muhabbatning chek-chegarasiz dashtida sarson holda yurar ekanman, ishq sarosimasidan nimaiki balolar boshimga tushsa, chorasizman. Oshiq muhabbatning poyonsiz dashtida ovora bo‘lib yurar ekan, bundan anglashiladiki, ishqning o‘zi behududdir. Bu ishq – ilohiy ishq, chunki insoniy ishqning boshi va oxiri, avji va susti, chek-chegarasi bo‘ladi, faqat Alloh ishqining poyoni yo‘q. Bu ishq tufayli boshga tushadigan balolar qarshisida oshiq chorasiz, zero, qazoga rozi va baloga sobir bo‘lish – mo‘minning shioridir.

Men o‘zimni topa olmayman-u, odamlar meni qanday qilib topsin?

Men shu tariqa ishq va junun sahrosida ovoraman. Bu bayt bugun ayrim adabiyotshunos va ixlosmandlar tomonidan buzib o‘qiladi va shunga muvofiq talqin qilinadi. Ularning fikriga ko‘ra, shoir “El netib topqay menikim, men o‘zimni topmasam” degan, yoki to‘g‘rirog‘i, shunaqa deb yozganida zo‘r bo‘lar edi. Ana o‘shanda “o‘zlikni topish, o‘zlikni anglash” kabi hozir urf bo‘lgan ijtimoiy dunyoqarash Navoiy orqali ham tasdiq etilardi... Uning zimnida “men o‘zimni anglasam (botinga nazar), boshqalar ham meni e’tirof etadi, biz o‘zimizni topsak, anglasak, o‘z qadrimizga o‘zimiz yetgandagina o‘zgalar (ya’ni boshqa millatlar, dunyo...) ham bizni tan oladi”, – degan shior singari bir da’vo yotadi.

Ey do‘st, sen yara-chaqalarimning qaysi birini davolamoqchisan?

Tiyr boron balosidan mening butun a'zoi badanim yara-chaqa-ku? Bu tiyr boroni, avvalo, ma'shuqa otgan istig'no o'qlari. Ammo bu – botiniy (ichki) jarohat, zohiriy tomondan esa ishq jununidan telba bo'lgan odamga bolalar tosh otib hamma yog'ini yarador qiladilar.

Oh tutuni ichida men bir uchqunday bo'lib yotganimni ko'rgan odam bu hijron kechasidagi yulduz – sayyora ekan, deb gumon qildi. Bu juda mahobatli manzara. Tutun hamma yoqni qoplab, uning zulmatida o'rtanayotgan oshiq bir uchqunday bo'lib arang ko'zga tashlanadi, uni ko'rgan odam hijron tunidagi yulduz va sayyoralarga o'xshatadi.

Tunlari kuyib-yonsam, tong saharlarda yig'lasam, ajablanmang.

Chunki ishqda parvona va bulbul bilan ishim bir xil. Bunda mumtoz adabiyotimizga xos tanosub san'ati qo'llangani diqqatga sazovor, ya'ni o'rtanmoq deganda alangaga o'zini urib kuyadigan parvona, saharda nola qilish esa tongda sayragan bulbulga qiyos qilinadi.

Ey xarobot (mayxona) ahli, siz mast bo'lib, men mast bo'lmasam, bu ayb emas, negaki sizlar may ichasiz, men esa qon yutaman. Nazarimizda, bu g'azalning ma'no va ishoratga eng to'liq bayti shu. Bunda shoir sirtidan mayxona ahliga murojaat qilgani bilan, aslida mustasiflarga – soxta oshiq, soxta soliklarga xitob qiladi, ularning ishq yo'lida o'zini mast-alast qilib ko'rsatishlarini ma'qullamaydi. Navoiyning e'timodicha, oshiqlikning yanada yuqoriroq bir bosqichi bor, bu hushyorlik ila yorga yetishishdir.

Ey Navoiy, do'st-yorlarim ketdi, deb shoshilma, Bu karvon ortidan it kabi ergashib boraman.

Shaklni idrok etish.

To mu-hab-bat/ dash-ti be-po-/yo-ni-da o-/vo-ra-men,

Har ba-li-yat/ kel-sa ish-qo-/shu-bi-din be-/cho-ra-men.

Vazni: ramali musammani mahzuf.

Foilotun foilotun foilotun foilun

v - - / - v - - / - v - - / - v -

Qofiyadosh so'zlar: ovoramen, bechoramen, yoramen, sayyoramen, hamkoramen, xunxoramen, boramen.

Radif ishtirok etmagan. She'riy san'atlar: tashbeh, tanosub, tazod, istiora.

4.Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). O‘qituvchi vaznning qanday o‘qilishini tushuntiradi va ovoz chiqarib o‘qiydi. O‘quvchilar vaznga solib o‘qishni mashq qilishadi. Asar so‘zlaridagi har bir bo‘g‘inga urg‘u berish, baland ovozda zo‘r berib, ba‘zan qichqirib o‘qish mumkin emas. Aruzda so‘zlardagi tovush va bo‘g‘inlar ba‘zan alohida, ba‘zan esa bir-biri bilan qo‘shilib talaffuz qilinadi. “Ravon nutq inson ko‘rki” shiori ostida nazm daqiqasi tashkil qilinib, o‘rganilgan bilimlar mustahkamlanadi. Mumtoz matnlarni ifodali o‘qish uchun aslida ularning vaznini bilish talab etiladi. O‘quvchilar diqqatini g‘azalda aks etgan g‘oyalar oqimigagina qaratib qolmay, ana shu voqealar asnosida qo‘llanilgan badiiy san’atlar hamda ijodkorning mahoratini namoyon qiluvchi jihatlarga yo‘naltirilsa, ularning ko‘ngil ko‘zi ochiladi. Shunda bolalar so‘zning seyrini his etadi, uning badiiy ichki imkoniyatini, yashirin qirralarini topib oladigan bo‘lib qoladilar. Dostonda qo‘llanilgan badiiy tasviriy vositalarni, dostonning vaznini sharhlash adabiyot darslarida o‘quvchiga estetik zavq bag‘ishlaydi. San’atni tushunishga o‘rgatadi. Yozuvchining mahorati va asarning qadr-qimmati asarda so‘zning san’at darajasida qanday qo‘llanilgani bilan o‘lchanishini o‘quvchi tushunishi kerak. Matn ostidagi tagma‘noni tushunishda asarda qo‘llanilgan badiiy tasviriy vositalarning o‘rni muhim.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (References):

1. Имом Ғаззолий. Қирқ ҳадиси қудсий. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2008. – 20 б.
2. “Олтин силсила” – “Саҳиҳул Бухорий”. 1-жуз. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф ва таржимонлар гуруҳи. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2023. – 672 б.
3. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 1-жуз. – Т.: Hilol-nashr, 2022. – 666 б.
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 2- жуз. – Т.: Hilol-nashr, 2022. – 640 б.
5. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 3- жуз. – Т.: Hilol-nashr, 2022. – 648 б.
- Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 4- жуз. – Т.: Hilol-nashr, 2022. – 668 б.
6. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 томлик/ Э.Й.

- Фозилов таҳрири остида. 1-том. – Т.: Фан, 1983. – 656 б.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 томлик/ Э.Й. Фозилов таҳрири остида. 2-том. – Т.: Фан, 1983. – 644 б.
8. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 томлик/ Э.Й. Фозилов таҳрири остида. 3-том. – Т.: Фан, 1984. – 624 б.
9. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 7-том. Хамса. Ҳайрат ул-аброр. – Т.: Фан, 1991. – 392 б.
10. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 8-том Фарҳод ва Ширин. – Т.: Фан, 1991. – 544 б.
11. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 9-том. Лайли ва Мажнун. – Т.: Фан, 1992. – 356 б.
12. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 11-том. Садди Искандарий. – Т.: Фан, 1993. – 640 б.